



TURKIY TIL VA DUNYO

Rustamova Shahlo Farhod qizi

CHDPU Gumanitar fanlar fakultet, 2-kurs

rustamovashahlo411@gmail.com

+99894 435 60 30

Ilmiy rahbar: Muratova Nafisa

Annotatsiya

Ushbu maqolada turkiy tilning kelib chiqishi va tarbiyada tutgan o'rning nechog'lik ahamiyatli ekanligi haqida so'z yuritladi

Annotation

This article talks about the origin of the Turkish language and how important it is in education.

Kalit so'zlar: Til, so'z, ong, inson, oila, aql, turkiy.

Key words: Language, word, mind, human, family, mind, Turkish.

Odam bu olamda ongli mavjudot bo'lib yaralibdiki, u hamisha o'zining yaralish tarixini, borliqning mohiyatini anglashga intiladi. Tabiiyki, bunda odamning ikki asosiy quroli bo'lmish aql va til unga xolis yordamchi bo'ladi. Ahamiyat bering, arabcha "aql", "oqil", "naql", "maqol" so'zлari o'zaro o'zakdosh bo'lib, ular "uql" yo "o'qil" ma'nosida, turkiy "uq" va "o'qi" so'zлari bilan hamohang, balki o'zakdoshdir. Zero, turkiy tildagi -il, -l qo'shimchalari fe'lning majhul nisbatini yasash uchun qo'llanadi. Bundan tashqari, turkiy xalqlardagi "oqin" so'zi "baxshi, doston aytuvchi" ma'nosida ishlatilib, avval-boshda "o'qin", ya'ni "doston o'quvchi" (xuddi "bo'g'in", "sotqin", "to'sin" so'zлari kabi) bo'lsa, ehtimol. Shu narsa aniqli, olam haqidagi cheksiz bilimni sanoqli (bir, yuz, ming va hokazo) avlodlar uqib-o'zlashtirishi amalda mumkin emas. Demak, har bir avlod ong bilan uqib, to'plagan bilimlarni keyingi avlodga qoldirishi, keyingi avlod u bilimlarni tahlil qilib-boyitib, o'zidan keyingi avlodga yetkazishi lozim. Bu jarayonda, albatta, til va adabiyotning ahamiyati aql va ong kabi muhim va hal qiluvchidir. Diniy manbalarda "Avval so'z bo'lgan", deb bejiz aytilmagan. To'g'ri, til ham xuddi odamning besh sezgisi kabi ongga bo'ysunadi. Lekin til ma'lum ma'noda ongdan ham qudratliroq bo'lishi mumkin. Masalan, tilda osongina o'nning yuzinchи darajasi (ingliz tilida bu son "gugl" deyiladi) kattalikni yoki trilliondan bir qism kichiklikni aytib-ifodalashimiz mumkin, lekin buni ong bilan anglash juda qiyin. Diniy manbalarda aytishicha, Tangri Taolo borliqni birgina "bo'l" (ruscha "bud", inglizcha "be [bi]") so'zi bilan yaratgan. Qizig'i shundaki, bu qadim turkiy so'z ikki fe'lni anglatadi. Biri "yuz bermoq, amalga oshmoq", ikkinchisi "sindirib, qirqib, yorib va boshqa yo'l bilan butunni qismlarga ajratmoq". XX asrning boshlarida olimlar borliq



“katta portlash”dan yaralganini, koinot borgan sari kengayayotganini ilmiy isbotladilar. Buni qarangki, “bo‘l” so‘zi har ikki ma’nosida ham Yaratganning xohishini ifodalayapti... So‘zning, tilning qudratini ko‘rsatuvchi bunday misollarni istagancha keltirish mumkin., Odam Ato va Momo Havo ismlari asli “ada” va “ava” bo‘lgandir. Shuning uchun lotin va rus tillarida ular “Adam” (Adam) va “Eve” (Yeva) deb talaffuz qilinadi. Arab tilidagi “havo” so‘zi turkiy “ava” (“avayalamoq” fe’lining o‘zagi) so‘zi oldiga “h” tovushi (harfi) qo‘silib yasalgan. Qolaversa, turkiy “ava” so‘zi bilan “aya” (“ayamoq” fe’lining buyruq mayli) so‘zi o‘zaro sinonimdir. Arabcha “ayol” so‘zining o‘zagi ham “aya” bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Sababi, “-l” qo‘sishimcha bo‘lib, u fe’lning majhul nisbatini anglatadi. Umuman, arab, fors va rus tillaridagi ko‘pgina so‘zlar asli turkiy so‘zlardir. Masalan, “lug‘at-(bi)lig”, “avrat-avra, o‘ra”, “bashara-bosh-ora”, “burqa-burka(moq)”, “mutlaq-to‘liq”, “tarang-tara(moq)”, “chunki-tushunki”, “karashma-qarashma”, “otash-o‘t”, “bilet-bilit (bildir)”, “vanna-yuvin”, “konkurs-qo‘sh kurash”, “kosa, kosilka-kesmoq”, “stupnya-to‘piq”, “toska-tushkun”, “chuchelo-cho‘chit”, “kochevnik-ko‘chmanchi” va hokazo. Arab tili bilan turk tilining uzviy aloqadorligiga doir yana bir misol: islom dinida chaqaloq tug‘ilganda uning qulog‘iga azon aytilib, “Ollohu Akbar, Muhammadur rasululloh” deyiladi. Turkiy va bir qator boshqa xalqlardagi onaning o‘z chaqalog‘iga alla (e’tibor bering, “Olloh”ga ohangdosh) aytishi uning o‘z bolasiga o‘ziga xos azoni, Olloohni tanitishi, deyish mumkin. “Alla” so‘zi ingliz tilida “lullaby [la’lbabay]” deyiladi. Ahamiyat bering: inglizchada “goodbye [gud’bay] xayr, yaxshi qoling, xudo yor bo‘lsin” so‘zi asli “God by (you) [God bay yu] Xudo siz bilan” degan iboradan kelib chiqqan. Ya’ni, “lullaby” so‘zi ham “Allah by you – Olloh sen bilan” iborasidan olingan bo‘lsa, ehtimol

Agar ota-onan farzand ta’lim-tarbiyasiga mas’ul bo‘lsa, u holda ular o‘z bilim va ko‘nikmalarini bolalariga qay shaklda beradi, ota va ona oilada bu vazifalarni qanday bo‘lishib olishgan, degan savolga to‘xtalaylik. Qisqa javob beradigan bo‘lsak, ona bolaning tilini chiqarishga, ota esa uning nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, bola onadan ona tilini, otadan adabni o‘rganadi. Shu o‘rinda arabcha “adab” so‘zi “ada”, ya’ni “ota” so‘zidan yasalgan, deya faraz qilsak, mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Ma’lumki, ba’zi harflar almashinib turadi. Masalan, b, p, m harflari: “bunday” – “munday”, “tub” – “tup”. Xuddi shunday, “adam” – “adab”. Zero, “adabiyot” so‘zini “adamiyat”, ya’ni “odamiylik” deya tushunsa ham bo‘ladi. “Odam” so‘zining tub ma’nosi haqida turli fikrlar mavjud. Ba’zilar fikricha “odam” so‘zi “adim” – “ro‘yi zamin po‘sti” so‘zidan, ba’zilar “odama” – “bug‘doy rangli” degan so‘zdan olingan[1]. Yunoncha “didaktik”, “akademik”, lotincha “educate [edyu’keyt], education [edyu’ke’yshn] (ta’lim bermoq, ta’lim)”, “advice [edva’ys] (maslahat,



o‘git)”, “advokat” so‘zlari ham “ada”, “adam” so‘zlari bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Umuman olganda, tilshunoslik ham, adabiyot ham o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birisiz yashay olmaydi va bir-birini to‘ldiradi. Vazifasiga ko‘ra ham ular hamisha yonma-yon: tilshunoslik tilning so‘z yasalishi, so‘z turkumlariyu gap bo‘laklarining qoidalarini o‘rganish bilan shug‘ullansa, adabiyot so‘zning ifoda qudrati, voqelikni turli shakllarda tasvirlash, tilning insonga ta’sirini kuchaytirish yo‘llari, insonning tuyg‘ularini qo‘zg‘ash, xatti-harakatlarini biror yo‘nalishga solish usullari bilan shug‘ullanadi. Yana shuni ta’kidlash kerakki, agar oilada er va xotin turli millat vakillari bo‘lsa (masalan, ona rus, ota o‘zbek yoki aksincha), u holda bunday oiladagi farzandlar aksariyat hollarda, ota qanchalik qarshilik qilmasin, onasining tilini o‘rganadi. Lekin ona qanchalik harakat qilmasin, aksariyat hollarda, farzandlar ko‘proq otasining dunyoqarashini, adab-odobini qoniga singdiradi.

XULOSA qilib aytadigan bo‘lsak, til insonning ongidagi fikrlari va ko‘nglidagi tuyg‘ularini ifodalash vositasidir. Ayollar tabiatan erkaklarga nisbatan ta’sirchanroq, yumshoqroq, ko‘ngilchanroq bo‘lishlari, erkaklarning esa, aksincha, qattiqqo‘l, bardoshli, qat’iyatlari bo‘lishlari ular tilida o‘z ifodasini topadi. Ya’ni, ayollar aksariyat hollarda ongga nisbatan qalblariga ko‘proq qulqoq tutsalar, erkaklar qalbdan ko‘ra ongga ko‘proq tayanadilar. Gap qaysi biri yaxshi yoki to‘g‘riligida emas, albatta. Bu muayyan vaziyatga bog‘liq. Ba’zida ayollarning, ba’zida erkaklarning qarori kutilgan natijalarni berishi mumkin. Yana shunisi ham borki, xuddi oilada er va xotinning bir-birini tushunishi oilaning mustahkamligi va xotirjamligini ta’minlaganidek, tilda ifodalangan fikr va tuyg‘ularning qay darajada o‘zaro mos-muvofiqligi ham insonning butunligi va xotirjamligini ta’minlaydi. Aks holda, o‘zaro kelisholmagan er va xotin ajralgani va oila parokanda bo‘lgani kabi, o‘zaro kelisholmagan ong va ko‘ngil, aql va tuyg‘u insonni turli fojialarga olib kelishi mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – T.: “Cho‘pon”
2. Time Almanac 2000 with Information Please. Boston. USA.:1997
3. The American Heritage College Dictionary. Houghton Mifflin Compan USA.: 1997.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomlik. Moskva, “Russkiy yazык”, 1981.
5. Sh.Rahmatullaev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – T.: "Universitet", 2000

